XALQ DEPUTATLARI NAMANGAN VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-17-173-6-0-K/25 Namangan viloyati

Viloyat hududidagi chiqindi poligonlarida maishiy chiqindilarni qabul qilish, joylashtirish va saqlash bo‘yicha to‘lovlar tariflarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5-sonli Farmoni 1-ilovasining 4-bosqichida xalq deputatlari mahalliy Kengashlari maishiy chiqindi xizmatlari tariflarini qayta ko‘rib chiqish va tasdiqlash belgilangan.

Namangan viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5-sonli Farmoni ijrosi yuzasidan 2025-yil 7-noyabrdagi 04/14-32/856-sonli xulosasi, Namangan viloyati Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasining 2025-yil 27-noyabrdagi 01-01/2749-sonli xati hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyaning yig‘ilish bayoni hamda xulosasini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-, 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 7-noyabrdagi 04/14-32/856-sonli xulosasi va Namangan viloyati Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish boshqarmasining 2025-yil 27-noyabrdagi 01-01/2749-sonli xatlari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi “Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi” davlat muassasasi Namangan viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan hududiy poligonlarda maishiy chiqindilarni qabul qilish va saqlash bo‘yicha to‘lovlar tariflari, narxlarni tartibga soluvchi organ bilan kelishgan holda cheklangan tariflar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (Z.Muminov), Chiqindilarni boshqarish sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish Agentligi Namangan viloyat boshqarmasi (A.Mamadaliyev), shahar va tuman hokimliklariga joylarda “Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi” davlat muassasasi Namangan viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan hududiy poligonlarda maishiy chiqindilarni qabul qilish va saqlash bo‘yicha to‘lovlar tariflariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish topshirilsin.

4. Mazkur qaror “Namangan haqiqati” va “Namanganskaya pravda” gazetalarida e’lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. “Yuksalish” harakati viloyat bo‘linmasi rahbari, viloyat Kengashi deputati N.Muhamadiyevaning taklifiga binoan viloyatda mavjud chiqindi poligonlarida maishiy chiqindilarni qabul qilish va saqlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish va qat’iy nazoratga olish.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Ikromov) hamda qarorning ijrosini ta’minlash viloyat hokimining o‘rinbosari G‘.Djamalov zimmasiga yuklansin.

7. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kirishi belgilansin.

Kengash raisi **MUMINOV SOLIJON DJALILOVICH**

Xalq deputatlari Namangan viloyati Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-17-173-6-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Viloyat hududidagi chiqindi poligonlarida maishiy chiqindilarni qabul qilish, joylashtirish va saqlash bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov tarifi

Xizmat ko‘rsatiladigan shaxslar	Tip, marka, artikul yoki madel raqami	O‘lchov birligi	Tarif miqdori (so‘m)
Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan o‘z texnikalari yordamida markaziy chiqindi saqlash obyektiga qattiq maishiy chiqindilarni olib borib joylashtirish (QQS bilan)	Maishiy chiqindilar	**m3**	**13 068**